

Shavkat Mirziyoevning joriy haftadagi rejalari ma'lum qilindi



Shavkat Mirziyoevning joriy haftadagi rejalari ma'lum qilindi

Prezident matbuot kotibi tomonidan o'tkazilgan brifingda davlat rahbarining bu hafta uchun rejalashtirgan tadbirlari haqida axborot berildi.

Prezident Matbuot kotibi Sherzod Asadovning ma'lum qilishicha, bugun Toshkent shahrida amalga oshiriladigan yangi loyihalar taqdimoti bo'lib o'tadi. Ertaga, 27 iyul kuni esa davlat rahbari kon-metallurgiya sanoati rivoji bilan tanishadi.

Shuningdek, hafta mobaynida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yuzasidan yig'ilish, hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha videoselektor o'tkazilishi mo'ljallangan.

Brifingda Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti avgust oyining boshiga rejalashtirilayotgani aytili. Sherzod Asadov tadbirkorlarni takliflar berishga, jurnalistlarni ushbu jarayonni yoritishda faol ishtirok etishga chorlamoqda. Eslatib o'tamiz, tadbirkorlarning takliflari 31 iyulgacha qabul qilinadi.